

ABSATTOROV Baxtiyor Mamorasulovich
*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
 pedagogika universiteti*
Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasida
dotsenti v.b., falsafa doktori PhD
E-mail: baxtiyor_absattorov@tdpu.uz

IMOM G'AZZOLIY ILMIY MEROSIDA SHARIAT VA TARIQAT O'RTASIDAGI MUROSA MASALASI

ВОПРОС ПРИМИРЕНИЯ МЕЖДУ ШАРИАТОМ И ТАРИКАТОМ В ТРУДАХ ИМАМА ГАЗАЛИ

THE QUESTION OF RECONCILIATION BETWEEN SHARIA AND TARIKAT IN THE WORKS OF IMAM GHAZALI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Imom G'azzoliy faoliyatida shariat va tariqat masalasiga munosabati yoritilgan. Uning ijodida ikki masalaning bir-biriga ta'siri va murosa masalasi to'g'risidagi qarashlari keltirilgan. Tasavvufning nazariy-amaliy jihatlariga ega ta'limot sifatida, mutasavvufning inson kamolotga erishuvining amaliy, ruhiy-psixologik holati, o'zini-o'zi tarbiyalash va chiniqtirish jarayoni muntazam davom etadigan xodisa ekanligi asoslab berilgan. Tasavvuf ta'limotining uzun davomli yo'li bo'lgan tariqat, yuksaklik maqomiga elituvchi ma'rifat va o'zlikni anglashning asosi bo'lgan haqiqat tushunchalarining yuzaga kelishi asoslangan. Shuningdek, tasavvuf gnesologiyasi deya e'tirof etiladigan bilishning darajalari, falsafiy yo'llari va bosqichlari tadqiq qilingan.

Tayanch iboralar: tasavvuf, tariqat, haqiqat, ma'rifat, so'fiy, irfon, borliq, botiniy ilm, zohiriy ilm, laduniy ilm.

Аннотация: В данной статье описывается отношение имама Газали к вопросу шариата и тариката в его творчестве. В его работах представлены его взгляды на взаимодействие двух вопросов и проблему компромисса. В качестве учения суфизма с теоретическими и практическими аспектами обосновывается, что практическое, духовное и психологическое условие суфийского совершенствования человека, процесс самовоспитания и обучения является закономерным явлением. Тарикат, представляющий собой долгий

путь суфизма, основан на появлении понятий истины, являющихся основой просветления и самосознания, ведущих к высшему статусу. Также были исследованы уровни, философские пути и этапы познания, известные как гнесология суфизма.

Ключевые слова: мистицизм, тарикат, хакикат, маърифат, суфий, предание, бытие, эзотерическое (батин) и экзотерическое (захир) знания, ilm al-laduni.

Abstract: This article describes the attitude of Imam Ghazali to the issue of Sharia and Tariqa in his work. His works present his views on the interaction of two issues and the problem of compromise. As a teaching of Sufism with theoretical and practical aspects, it is substantiated that the practical, spiritual and psychological condition of the Sufi improvement of a person, the process of self-education and learning is a natural phenomenon. Tarikat, which is a long way of Sufism, is based on the emergence of the concepts of truth, which are the basis of enlightenment and self-awareness, leading to the highest status. The levels, philosophical paths and stages of knowledge, known as the epistemology of Sufism, were also explored.

Keywords: mysticism, tarikat, hakikat, marifat, sufi, tradition, being, esoteric (batin) and exoteric (zahir) knowledge, ilm al-laduni.

KIRISH

Iroqda yaratilgan ulkan ta'limotning nazariy-metodologik asoslari IX asr boshida ishlab chiqildi. So'fiylarning amaliy, ruhiy-psixologik mashqlari, o'z-o'zini tarbiyalash va chiniqtirish tabdir-usullari shakllandi. "Tariqat", "ma'rifat", "haqiqat" degan tushunchalar yuzaga kelib, tasavvufning ushbu uch qismiga oid qarashlar majmui tuzildi – tasavvuf alohida ilm sifatida qaror topdi. So'fiylar dastlabki paytlar tasavvufni faqat siru asror, tushuntirib bo'lmaydigan holatlar («iboraga kelmaydigan ishoratlar») deb hisoblagan bo'lsalar, bora-bora bu holatlar haqida fikr-mulohazalar bayon qilina boshlandi, so'fiyni tarbiyalash vazifasi, pir-muridlik qoidalari, odobini yaratish zarurati tug'ildi. Natijada, tariqat va shariat orasidagi munosabatlar, olam, odam va Xudo orasidagi aloqa-muomala mohiyati, tavhid – vahdat masalalari munozaralarga sabab bo'ldi. Din arboblari bilan so'fiy shayxlari, ayniqsa falsafiydashgan tasavvuf tarafdorlari jiddiy mafkuraviy tortishuvlargacha bordilar. Tasavvuf butun Islom olamini zabt etib, barcha qadimiy shaharlarda xonaqohlar qurildi, yo'llarda rabotlar, aziz-avliyolarning mazorotida shayxlar maskan

tutib, ko‘plab shoigrdlarni tarbiyaga oldilar. Tasavvufning ilk davrida maqomot va tariqat asoslarini ishlab chiqish, so‘fiylik yo‘riqlarini belgilash va ilohiy haqiqatlarni el orasiga yoyishda Abu Ali al-Horis Muhosibiy (781-857), Zunnun Misriy (796-861), Abu Yazid Bistomiy (vaf. 875 y.), Junayd Bag‘dodiy (vaf. 910 y.), Hakim Termiziy (vaf. IX asr oxiri) va Mansur Halloj (858-922) larning xizmati katta bo‘lgan.

ASOSIY QISM

Keyinchalik Abu Said Abulxayr (967-1049), Abdulloh Ansoriy (1006-1089), Ahmad Yassaviy (vaf. 1166 y.) Yahyo Suhravardiy (1155-1191), Ibn Arabiy (1165-1240), Najmiddin Kubro (1145-1221), Bahouddin Naqshband (1318-1389) kabi shayxul mashoyixlar tasavvuf ilmini yangi fikrlar, qarashlar bilan boyitdilar, yangi oqim, silsilalarini vujudga keltirdilar. Tasavvuf haqida bir qancha risola va kitoblar yozildi, tasavvuf g‘oyalarini qizg‘in targ‘ib etuvchi ulkan she‘riyat vujudga keldi. Tasavvufga oid nazariy kitob va qo‘llanmalardan Abu Nasr Sarroj (vaf. 988 y.) ning «Kitob al-luma’», Al Kalobodiy (vaf. 990 y.) ning «Kitob at-ta’arruf», Abu Tolib Makkiy (vaf. 998 y.) ning «Quutul qulub», Abdurahmon Sulamiy (vaf. 1021 y.) ning «Risolatal malomatiya», Qushariy (vaf. 1072 y.) ning «Risola fi-t-tasavvuf», al-Hujviriynig (vaf. 1076 y.) «Kashf al-mahjub», Abdulloh Ansoriyning «Manozil as-soirin», Farididdin Attor (1119-1222) ning «Tazkiratu-l-avliyo» nomli asarlarini ko‘rsatish mumkin. Bulardan tashqari, Rumiy, Hofiz Sheroziy, Mahmud Shabistariy asarlariga yozilgan sharhlar ham so‘fiyona ishora va tamsillarni anglashda muhim rol o‘ynagan.

Tasavvufga oid ilmiy kitoblar va dasturlarda tariqat atamalari, maqomot manzillarini tushuntirishga ko‘p e’tibor beriladi. «Tariqat» so‘zining ma’nosi yo‘l demak. Ya’ni ilohiy ma’rifatni egallashga bel bog‘lagan kishining ruhiy-axloqiy kamolot yo‘li. Tariqatni tasavvufning amaliy qismi deb ta’riflaydilar. Darhaqiqat ham shunday, chunki pir-muridlik qoidalari, odobiga rioya etish, solik (ya’ni tariqatga qadam qo‘ygan yo‘lovchi) bajarishi kerak bo‘lgan barcha yo‘riqlar, irodat va ishorat usullari shu tariqat ichiga kiradi. Tariqat va uning maqomotlari, ma’lumotlarga qaraganda, birinchi marta Zunnun Misriy tomonidan bayon etilgan. «Shariat» (الشريعة) so‘zi

lug‘atda to‘g‘ri yo‘lga aytiladi, hozirda arablar katta ko‘chani «shori» (الشارع) deyishadi. Biror narsaga, biror ishga kirishishini esa «shuru» (الشروع) deyiladi. Qonun so‘zining bir ma’nosi hozirda «shar» (الشرع), qonun chiqarish va kodeks tuzishni «tashri» (التشريع), qonun chiqaruvchi, yurist va advokatlarni esa «shore» va «mutasharre» (المتشارع) deyilgan. Bu so‘zlarning o‘zagi bir. Demak, umumiy ma’noda diniy qonun-qoidalar majmuasi «shariat» hisoblanadi. Sayyid Sharif al-Jurjoni rahimahulloh «shariat»ning ma’nosini: «bandalik qilish usullari va dindagi yo‘ldir» [۱:۱۰۹], deb keltirganlar.

Islomda sunniylik va shialikdagi Shariat tizimlari o‘rtasida muayyan tafovutlar bor. Sunniylikda hanafiylik, molikiylik, shofi’iylik, hanbaliylik, shialikda esa ja’fariylik mazhabining o‘ziga xos huquqiy tartiblari mavjud. Sharhida davlat huquqiy me’yorlari va majburiyati, meros, jinoyat, jazo, oila, nikoh huquqi, shuningdek, sud ishlarini yuritish, vasiylik ko‘rsatmalari berilgan. Shariat xususiy mulkni Alloh tomonidan belgilangan, doimiy va o‘zgarmas deb hisoblaydi. Sharhida barcha xatti-harakatlar, dastlab ۲ tur: harom va halolga ajratilgan. Keyinchalik Shariat shakllanib tugallangan davrda ۵ toifaga bo‘lingan. «Bular: farz yo vojib – bajarilishi muhim va majburiy hisoblangan xatti-harakatlar (Alloh yagonaligiga ishonish, namoz o‘qish, zakot berish, ro‘za tutish, Haj ziyoratini ado etish kabilar); sunnat yo mustahab – majburiy emas, lekin ma’qul, lozim deb hisoblangan normalar (misol uchun: uylanish, sadaqa berish); muboh yo joiz – rag‘batlantirilmaydigan va uni bajarmaslik gunoh hisoblanmaydigan ixtiyoriy xatti-harakatlar (misol uchun: bitim, savdo shartnomalari tuzish, safar qilish, yemoq, ichmoq va boshqalar); makruh – jazoga tortilmaydigan, ammo noma’qul hisoblanadigan xatti-harakatlar (misol u-n: so‘kinish, kattalarning hurmatini o‘rniga qo‘ymaslik, suvni ifloslantirish, hayvonlarga haddan ortiq yuk ortish); harom – qat’iy ravishda taqiqlangan xatti-harakatlar (misol uchun: cho‘chqa go’shti iste’mol qilish, aroq ichish, odam o‘ldirish va boshqalar). Shariat jinoyat uchun qat’iy, lekin odilona choralarni belgilab bergan» [۲]. Shariat ilmlari islom dini va unga oid masalalardan iborat. Bular tajvid (qiroat), tafsir, hadis, fiqh ilmlari, fiqhning far’iy (juz’iy) qismlari hamda kalom ilmidan iboratdir. Shariat ilmlari qatoriga arab tili va adabiyoti ham kiritiladi, chunki ularsiz

Shariat ilmlarini o'rganish mumkin emas, deb hisoblanadi. Tasavvufda "Sahv" yo'nalishiga asos solgan Shayx Junayd Bag'dodiyning ushbu ko'rsatmasi: "Kimki Qur'on hofizi bo'lmasa va Hadis bilmasa, unga iqtido qilmanglar. Bizning yo'limiz Kitob va Sunnatga asoslangandir". Tariqat ahli uchun dasturulamal bo'lib qoldi. Shunga ko'ra Shariat ilmini bilmagan kishi Tariqatga o'tishga ruxsat berilmaydigan bo'ldi. "Tariqat" (الطريقة) so'zi ham lug'atda yo'lni bildiradi. Zamonaviy arab tilida usul, metod va vosita ma'nolarida ishlatiladi.

Sayyid Sharif al-Jurjoniy rahimahulloh "tariqat"ning ma'nosini bu tarzda keltirganlar: "Tariqat – Alloh taolaga tomon yo'lga tushganlarning manzillarni bosib o'tishi va maqomlardan o'tib borishidagi maxsus yurishdir" Tariqat (arabcha – yo'l, usul) – tasavvufga xos tushuncha. Unga ko'ra, sufiy yoki solik tirikchilikning barcha tashvishlaridan voz kechishi, doim qanoat qilib yashashi, tarkidunyo qilishi, har narsani xudodan deb bilishi, xudoni sevishi va unga intilishi, ixtiyorini pir, murshidga topshirishi lozim. Bundan tashqari Tasavvuf tushunchasi ko'proq tasavvuf yo'nalish (suluk)i, tarmog'i ma'nosida qo'llaniladi. Tarixda tasavvuf tariqatlarini noto'g'ri tushunish va talqin qilish natijasida ba'zi mutaassiblikka berilish holatlari ham kuzatilgan. Tasavvufda tariqatlar ko'p bo'lgan, masalan, tayfuriya, qodiriya, suhravardiylilik, bektoshiya va boshqa O'rta Osiyoda naqshbandiya, kubroviylik, yassaviylik tariqatlari tarqalgan. Tariqat (arabcha: yo'l, usul) – so'fiylikka xos tushuncha. Uch ma'noda ishlatiladi: 1) umuman so'fiylik yo'li; 2) so'fiylikning muayyan tarmog'i, yo'nalishi; 3) so'fiylik bosqichlaridan biri. Lekin Tariqatni so'fiylik yo'nalishlari (suluklari), tarmoqlari ma'nosida qo'llash kengroq tarqalgan [3:119].

So'fiylikning bosqichi sifatida Tariqat so'fiylar oldiga qo'yiladigan o'ziga xos talablar majmuasini, xilma-xil ruhiy-jismoniy xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. Tariqatga qadam qo'yish – tirikchilikning barcha tashvishlaridan voz kechish hamda ixtiyorni pir-murshid (eshon) ga topshirishdan boshlanadi. Undan keyin Tariqat yo'lida so'fiy yana bir necha bosqich (maqom) larni, jumladan doim kambag'allikda, tasodifiy rizq hisobiga yashash (faqr), tarki dunyo qilish (zuhd), har narsani faqat xudoga solish (tavakkul), uni sevishi va unga intilish (muhabbat, shavq) va boshqa bosqichlarni o'taydi. So'fiylikning ba'zi yo'nalishlari insonni nafaqat zohidlik, balki

mutaassiblik yo'lga ham yetaklaydi. Markaziy Osiyodada esa, mavjud bo'lgan naqshbandiylik, kubroviylik, yassaviylik tariqatlari tarqalgan. Shariat (arab. – to'g'ri yo'l; islomda qonunchilik ma'nosida ishlatiladi) – Islom huquq tizimi. Sharhida sof huquqiy masalalardan tashqari axloqiy me'yorlar va amaliy diniy talablar hamda qonun turlari berilgan. Musulmon kishi uchun dunyoga kelishidan to o'limigacha yurish-turishini belgilovchi qoidalar to'plami sifatida qaralgan.

Ilk islomda jamiyatni huquqiy boshqarish Qur'on asosida olib borilgan. Keyinroq musulmonlarning barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va diniy faoliyatini o'zida aks ettiruvchi, qamrab oluvchi qonunlar majmuasiga ehtiyoj tug'ilgan. Islom huquqshunoslari bir necha asr mobaynida Shariat me'yorlarini ishlab chiqqanlar. Sharhiga Qur'on, sunnat, ijmo va qiyos asos qilib olingan. Shariat huquqiy tizim sifatida XI-XII-asrlarda tugal shakllangan. Bunda yozma va og'zaki diniy, madaniy, axloqiy, huquqiy, mahalliy urf-odat va an'analarning ta'siri bo'lgan.

Ma'rifat" (المعرفة) so'zi lug'atda tanimoq, bilish, bilim, tanish, xabardor bo'lish, e'tirof qilish kabi ma'nolarni bildiradi. Biror narsani aniq-tiniq bilib olish "ma'rifat" hisoblanadi.

Ma'rifat bosqichida solik o'z nafsini ma'rifat etish orqali Alloh ta'oloni ma'rifat etish bosqichiga yetib, Orif degan nomni oladi. Ushbu ma'naviy-ruhiy kamolot bosqichi quyidagi mazmundagi Hadisi qudsiyga asoslangan: "Kimki o'z nafsini tanisa, u o'z Rabbini tanigay". Ma'rifat Irfon maqomidir. Unga yetgan solik Oriflik darajasiga yetadi. Orif – irfon sohibi, anglagan va tanigan. So'fiylarning nuqtai nazarida irfon Alloh tuhfasini bo'lgani uchun ilmdan ustun erur. Orif – Allohning shuhud, asmo va sifotlarini idrok etgan, mavhum borlig'idan kechib, Haq borlig'i ila bor bo'lgan kishidir.

Irfon kamolot sari ochilgan eshik, mehnat bilan erishilgan ilm. Irfon tafakkurning barcha qutblarini bag'riga sig'dira oladigan so'zdir.

"Haqiqat" (الحقيقة) so'zi lug'atda o'zbek tilidagidek bir narsaning to'g'riligi, haqqoniyligi, haqiqiylikni bildiradi. U chinakam, haqqoniyat, reallik, haq-huquq, adolatli ma'nolarida qo'llaniladi. Ya'ni, Haqqa yetishmoq haqiqatdir, Allohni haqiqiy ko'rib turgan kabi bilish va anglash haqiqatdir. Demak, yuqoridagi to'rtta holat insonning kamolot bosqichlaridir.

Bular shariat↔tariqat↔maʼrifat↔haqiqat bosqichlaridan iborat boʻladi. Demak, maʼrifatli odam shu maʼrifatini aniq bilib – anglagan onda eng barkamol, komil va mukammal insondir! Yanada soddaroq tushuntiradigan boʻlsak, bular sharʼiy amallarni ixlos va xolis bajarishdagi darajalar, amal qilish jarayonida insonni qamrab oladigan maʼnaviy his-tuygʻular, ruhiy tarbiyalar darajasi miqdoridir.

Haqiqat barcha maʼnaviy bosqichlarning nihoyasidir. Unga yetgan kishi valiylik maqomiga yetadi.

Ilohshunolsik ilmi – teosofiya boʻlgan irfon yoki maʼrifat («maʼrifat» soʻzi arabcha «arafa» – bilmoq soʻzidan yasalgan) tariqatning hosilasi va bevosita davomidir. Xoʻsh, maʼrifatning nishonasi nima, qanday kishi maʼrifatga noil boʻla oladi? Bu savollarga yuqorida qisman javob berilganday boʻldi. Ammo shunga qaramay, buni kengroq sharhlashga majburmiz, chunki tasavvufda maʼrifat tushunchasi maxsus oʻrin egallaydi va uning oʻz taʼrifi, haqiqatlari bor. Soʻfiylar nazarida maʼrifat fikrdan oldin ketadigan va shubhaga zarracha asos qoldirmaydigan ilmdir. Maʼrifat ilmi botiniy ilm deb ham yuritilgan. Chunki tasavvuf ahli dunyoviy va diniy ilmlarni birga qoʻshib, «zohiriy ilmlar» deb ataganlar. Ularning uqtirishicha, zohiriy ilmlar bilan Xudoni bilish qiyin. Biroq, boshqa bir nuqtai nazar ham bor: garchi zohiriy bilimlar Haq taolo asrorini anglashga yaroqsiz boʻlsa-da, lekin dunyoni bilish Allohni bilishning birinchi bosqichi, yaʼni Allohni bilish dunyoni bilishdan boshlanishi kerak, chunki dunyo – kasrat koʻplik olami, Ollohning ijodi. Uning sifatleri, qudratini namoyon etib turadigan koʻzgu. Tasavvuf nazariyotchilaridan biri Abdurazzoq Koshoniy Ibn Arabiy qarashlariga suyanib, maʼrifatga bunday taʼrif bergan: «Maʼrifat muxtasar ilmlarni tafsilotlar suratida tanimoqdir, ilohiy maʼrifat ilohiy zot va sifatleri ahvol va hodisalar tafsili va nuzul amrlar suratida tanish demak» [4:55]. Buning maʼnosi shuki, Muxtasar mavjudlik va mutlaq foil (ish egasi) Allohning oʻzi boʻlib, Uning ilmi kasrat olamida tafsillik topadi, muayyanlashadi. Bundan yana quyidagi fikr kelib chiqadi: moddiy dunyodagi jamiki ilm, insonlarning toʻplagan hikmat-donishleri, hali ochilmagan barcha siru asrorlar Allohga tegishli, Alloh – hikmatlarning jamuljami, bizning bilimlar esa – Uning tafsiri, sharhi. Demak, biz Rabbimizni bilish uchun tafsirdan Buyuk aslga qarab borishimiz kerak. Zunun Misriy aytadi: «Maʼrifatning

avvali – tanlash, keyin esa ixtiyor etish, soʻngra bogʻlanishdir» [5:25]. Ilohiy maʼrifatni egallash martabalari esa quyidagicha: Solik har bir narsani koʻrganda, uni Mutlaq foilning asari deb bilsin, yaʼni borliq va olamlar oʻz-oʻzicha mavjud emas.

Mutlaq foildan boʻlgan har bir asarni koʻrganda tasavvuf va taxayyul bilan mutlaq foil sifatleridan qaysi sifati zuhuri ekanligini anglab yetsin. Chunki Parvardigorning behisob sifatleri boʻlib, olam oʻzgarishleri, voqea-hodisalar, narsalar xususiyati Uning muayyan sifatining natijasidir. Haq murodi-maqsadini har bir sifat tajallisida (porlashida) anglab etsin (tanisin). Solik ilohiy Ilm suratini oʻzining maʼrifati suratida tanisin va oʻzini ilmu maʼrifat, balki vujudan ham soqit etsin. Keyingi, toʻrtinchi martaba tavhid va fanoga ishoradirkim, bu haqda alohida toʻxtalib oʻtamiz. Demak, bundan maʼlum boʻladiki, garchi Ollohni koʻrish mumkin boʻlmasa-da, (hatto hazrati Paygʻambar sallolohu alayhi vasallam ham Meʼroj kechasi Parvardigor huzuriga etishganda, Uni bevosita koʻrganlari yoʻq, balki parda orqasidan suhbatlashib, jamolidan bahramand boʻlganlar), ilohiyot olami «gʻayb olami» deyilsa-da, shunga qaramay, Uni tanish sifatleri orqali Zotini anglash, idrok etish mumkin. Hujjatul islom Muhammad Gʻazzoliy deydi, ruhni koʻrib boʻlmaydi, lekin ruh bor, u – «hastii nestnamoy» [6:129], yaʼni yoʻqday boʻlib tuyuladigan borliqdir. Masalan, toʻzon qoʻzgʻolganda, tuproq oʻz-oʻzidan havoga koʻtarildi deb aytolmaymiz. Tuproqni shamol koʻtarib, toʻzonga aylantiradi, lekin shamol va havo koʻzga koʻrinmaydi. Shu kabi ruh ham koʻzga koʻrinmaydi, ammo jism harakatlari ruhdandir, biz buni jismning xususiyati, harakati orqali bilib olamiz.

Tasavvuf ahli bilishning falsafiy yoʻllari – tasavvur, his, mantiqiy tafakkur va hokazolarni ham eslab oʻtadilar. Biroq ularning fikricha, aqliy-hissiy bilish zohiriy – dunyoviy bilimga kifoya qiladi, xolos. Ilohiyotni anglash uchun esa aql ojizdir [7:65].

Ilohiyot ilmi aqlga sigʻmaydigan, aql oʻlchovlaridan baland turadigan ilmdir. Ibn Arabiy aytadiki, Xudo haqida ham aql tili bilan gapirish va taʼriflash mumkin, lekin aql kuchi bilan Uni bilish, anglash mumkin emas. Aql har doim isbotni talab qiladi, dalil – tajribaga tayanib ish koʻradi. Vaholanki, Xudoning borligi, zotu sifatlerini dalil orqali isbotlash mushkul. «Maʼrifat Haq tomonidan yuboriladi. Bu mening fikrim emas, balki ilohiy

ilhomdir», deb yozadi Ibn Arabiy. Alloh bilan xilvatda qolgan mard insonda shunday holat yuz beradiki, unda Ilmlardan ilhom paydo bo'lib, Uning rahmati bilan yuksaladi. Boyazid Bistomiy kalom ahliga qarab shunday degan ekan: «Siz o'z ilmlaringizni jonsiz narsalardan olasiz, biz esa abadiy tirik Zotdan olamiz» [8:53-54]. Boyazid jonsiz narsalar deb moddalar-ashyolarni nazarda tutadi.

Asli Ispaniyada tug'ilib, musulmon olamini kezib chiqqan, o'zining «Futuhoti Makkiya», «Fususul hikam» asarlari bilan tasavvuf falsafasiga ulkan hissa qo'shgan Shayxi kabir Ibn Arabiy (1165–1240) inson bilimlarini uchga bo'lgan: aqliy-hissiy bilimlar, hol ilmi, sirru asror ilmi. Birinchi ilm va fan bilan shug'ullangan insonlar ilmi, ikkinchisi hol martabasiga ko'tarilgan soliklar ilmi hisoblanadi, ya'ni vajd holatida kashf etilgan ilm. Uchinchi ilm – avliyolar ilmi. Bu ilm muqaddas ruhlar orqali keladi, shu'la – nur ko'rinishida qalbg'a kiradi.

Shu o'rinda tasavvuf ahli tez-tez murojaat qiladigan bilishning uch xil bosqichi ilmul yaqin, aynul yaqin va haqqul yaqin tushunchalari ustida to'xtalmoqchimiz. Ilmul yaqin, aynul yaqin, haqqul yaqin – bilishning uch bosqichi. Birinchi bosqich kitobiy, tahsiliy bilimga ishora bo'lsa, ikkinchi bosqich o'z ishtirokidagi tajribaviy bilimni anglatadi, uchinchi bosqich esa o'zi tajriba vositasiga aylanib, haqiqatni anglash bilimidir. Buni hech mubolag'asiz aytish mumkinki bu tasavvufning bilish nazariyasidir.

Ilmul yaqin – “ishonchli bilim” buni qiyoslash orqali quyidagicha izohlash mumkin: u menga qayta-qayta tushuntirilgan, olov issiq va kuydiradi bu ilmiy jihatdan isbotlangan va tajribadan o'tgan qat'iy ishonch hosil qilingan oddiy mantiqiy bilimdir.

Aynul yaqin – “to'liq ishonch” – olov yonishini o'z ko'zim bilan ko'rdim, bu tajribaviy bilim, shubhasiz, ta'lim orqali olingan bilimdan yuqoriroq va aniqroqdir.

Haqqul yaqin – “haqiqiy ishonch” – men o'zim olovda yondim va shu bilan uning yonish qobiliyatiga ishonch hosil qildim. Bu – Haqqa etish ilmi. Ya'ni, boshqacha qilib aytganda, bu identifikatsiya, kuzatuvchining butunlay yo'qolishiga olib keladi. Bu haqiqat bosqichiga xos bilish shaklidir. Bu yerdagi bilim intuitiv bo'lganligi sababli, bu bosqichga yetib kelgan odamning gaplari asosan timsol shakliga ega

bo'ladi. “Allohning fazli bilan shar'iy va aqliy ilmlarni egallash yo'lida o'rganganlarim, sayr etgan suluklarim sababli menda uch asos Alloh taologa, nubuvvatga hamda oxirat kuniga bo'lgan yaqiniy iymon qaror topdi” [9:110]. Ibn Arabiy ham tasavvufning bilish ilmi va darajalarini shunday tasniflagan.

Tasavvufdagi ilohiy muhabbat orqali xudoga yetishish va ezigulikka intilish orzusi Islomga ya'ni joziba va ma'naviy yangilanish bag'ishlangan bo'lsada, ikkinchi tomondan, xatarli natijalarga olib kelishi ham mumkin edi. Masalan, butunlay ozodlikka erishish va xudo bilan yuzma yuz ko'rishishtalabi u dunyodagina emas, balki bu dunyoda ro'y berishini taqazo qilish imkoniyati bor edi. Bunday talab inson ruhini shunday dag'alliklarga ham olib kelishi mumkin ediki, undan qutilish hammaga ham nasib etavermas edi. Tasavvuf tarixida Hallojdan keyin eng yirik shaxslar Imom G'azzoliy va Ibn Arabiylardir. Falsafa ilmi kalomdan o'zlari izlagan haqiqatni ya'ni ilmi yaqinni topishdan umidi uzigach o'sha davrning ma'rifat va haqiqat o'chog'i bo'lgan tasavvufga yuzlandilar [10:226]. Ma'lumki, G'azzoliy o'zining fikriy va ruhiy ehtiyojlarini tasavvuf topganligini e'tirof etgan holda “Al-Munqiz minaz-Zolal” asarida: “So'ngra ushbu ilmlardan forig' bo'lganimdan keyin bor himmatim ila so'fiylik yo'liga yo'llandim. Men ularning yo'li ilm va amal ila batamom bo'lishini anglab yetdim. Ularning amalning hosili havoyi nafs to'siqlarini kesib o'tishdan hamda yomon xulqlardan va chirkin sifatlardan poklanib, qalbni Alloh taolodan boshqa joy qoldirmaslik va uni Allohning zikri ila ziynatlashdan iborat edi” [11:226]. U o'zining butun iste'dodini ishga solib, ahli sunnat va jamoa (Hanafiylik mazhabi) e'tiqodlarini himoya qilishga otlandi va nimani arzigulik deb bilsa, shuni unga muvofiqlashtirishga intildi. Ahli sunnat va jamoa e'tiqodlariga muvofiq keladigan G'azzoliyning so'fiyona aqidasi uch asosga tayanar edi:

1) Qur'onning yaratilgan jahonga nisbatan butunlay muvofiq ravishda, Xudoning mutlaq irodasi tufayli yaratilganligi;

2) Borliqning yangi aflotuncha tarzda bir necha bosqichlardan iborat qilib yaratilganligi;

3) Unda aql Xudo bilan qo'shilib ketishi va bu holatdan “Aynul-jam” (“hamma narsaning birikishi”) tarzidagi asbob sifatida foydalanish. Yuqorida aytilgan uch asosdan falsafa tarixi uchun faqat ikkinchisigina alohida ahamiyatga

egadir. Ikki muhim soʻfiyona risola boʻlgan “Mushkot ul-anvor” va “ar-Risolat al-Laduniyya” asarlaridan koʻrinadiki, borliqning yangi aflotuncha bosqichlari tizimi Gʻazzoliyning barcha tasavvufiy qarashlarining tabiatdan tashqaridagi narsalar asosi sifatida qoʻllaniladi. Guvohlik berish mumkin boʻlgan olam yoki suflil olam yaʼni jismoniy va zulmatli dunyo olami malakut yoki alaviy olam qarshisida ruhiy va nurli dunyo boʻlib, u haqda Qurʼon va boshqa osmoniy kitoblar hikoya qiladilarki, mazkur dunyo magʻz atrofidagi poʻchoq yoki peykar qarshisidagi soyaga oʻxshaydi.

Tasavvuf amal ilmi va daraja, maqomot ilmi ekanligini Imom Gʻazzoliy ilmni egallash amaldan oson deya izohlagan. “Qalb illatlari, xastaliklari, ularning muolaja yoʻli ilm va yaqin (haqiqiy ishonch) nuri bilan namoyon boʻladi... Ilmda daraja boʻlgani kabi iymonda ham daraja bor. Ilm iymondan soʻng hosil boʻladi” [12:354]. Insonga zulmatda najot beruvchi taʼlim va murosa ekanligini taʼkidlaydi.

Binobarin, Haqning mavjudligi (rostakam borliq) yagona boʻlib, undan boshqa hech narsa mavjud emas. Shunday nuqtai nazardan kelib chiqib, Gʻazzoliy yozadi: “Oriflar shundan kelib chiqib, oʻz majoziy haqiqatlari choʻqqisiga chiqdilar va oʻz meʼrojlarining kamoliga yetishib shuni ayon koʻrdilarki, borliq sahnasida xudoyi taolodan oʻzga narsa yoʻq” [13:51]. Abu Tolib Makkiy rahmatullohi alayh, Junayd, Shibliy, Abu Yaziyd Bistomiy kabi mashoyixlarning qoldirgan boy merosi orqali, tasavvuf ilmini chuqur oʻrgandi. Ularning ilmiy merosini oʻrgangan Imom Gʻazzoliy: “Ularning yoʻli boʻyicha taʼlim olish va eshitish bilan hosil qilish mumkin boʻlgan narsalarni hosil qildim. Men ularning eng xos narsalari taʼlim olish orqali emas, zavq, hol va sifatlarning oʻzgarishi orqali boʻlishini anglab yetdim” [14:227] degan edi. Inson kamoloti, albatta, hol va sifatlarni oʻzgarishlari orqali sodir boʻlishini anglagan holda Imom Gʻazzoliy tasavvufga va dinga oid bir qator asarlar yozgani bizga maʼlum. “Odobus-soʻfiya”, “Al-Arbaʼun fiy usulud-din”, “Ithyo ulumud-din”, “Ar-Risola al-Laduniyya” singari bebaho durdona asarlarni yozib qoldirdi.

XULOSA

Imom Gʻazzoliyning fikrat va tafakkuri nafaqat tasavvuf ilmi, shuningdek, usulul fikh ilmi bilan doimiy band boʻldi. Oʻz ilmi sarhisobida eng zaif

yerlari hadis ilmi ekanligini ham zikr qilib oʻtgan. Umriining soʻngida oʻzlari ham bu nuqsonni anglab, hadis ilmini egallashga harakat qilgan. Imom Buxoriy va Muslimning “Sahih”larini oʻrgandi. Imom Gʻazzoliyning asarlari insonni Xudo, borliq, hayot, ruh, tabiat, oʻtmish, bugun kelajak, mohiyat haqida fikrlash va olamni ham aqlan, ham qalban idrok etishga undaydi. Uning taʼlimoti bugun globallashayotgan, tobora moddiylashib, oʻz ixtiyorlarini nafs qutqusiga topshirayotgan, ongsizlik, tafakkursizlik, behayolik, buzgʻunchilik, haromxoʻrlilik va maʼnaviyatsizlik botqogʻiga botib borayotgan XXI asr insonlarini kelajak haqida kengroq, chuqurroq tafakkur qilishga daʼvat etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Sayyid Sharif al-Jurjoni (2000) “Moʻjam at-Taʼrifot”. – Qohira: “Dor al-Fazilat”, – B. 109.
2. Shariat // <https://qomus.info/oz/encyclopedia/sh/shariat/>
3. Sayyid Sharif al-Jurjoni (2000) “Moʻjam at-Taʼrifot”. – Qohira: “Dor al-Fazilat”, – B. 119.
4. Jalilov Z.B (2011)., Imom Gʻazzoliyning pedagogik qarashlari //–Tafakkur, –Toshkent, –B 55.
5. Imom Abu Abdurahmon Sulaymiy (2020). “Tasavvuf va uning haqiqati haqida muqaddima”. Tarjima: Abdulhamid Muhammad Tursun. – Toshkent.: “HILOL NASHR”, – B. 25.
6. Abu Homid Gʻazzoliy (2009) – “Ithosiga muxtasar”, Imom Ahmad ibn Qudoma Maqdisiy. – Toshkent.: TIU nashriyoti, –B. 129.
7. Abu Homid Gʻazzoliy (2022). “Haqiqat yoʻlining asoslari”. Toshkent.: “Faktor”, – B.65.
8. Karimov B (2005) “Sotsiologik tadqiqot metodi va texnikasi” – Buxoro, 53-54-betlar.
9. Abu Homid Gʻazzoliy (2021). “Zalolatdan qutulish”. Toshkent.: “Munir”, – B.110.
10. Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф (2021). “Ақоид илми ва унга боғлиқ масалалар”. –Тошкент.: “Hilol-Nashr”, –Б. 226.
11. Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф (2021). “Ақоид илми ва унга боғлиқ масалалар”. –Тошкент.: “Hilol-Nashr”, –Б. 226.
12. Абу Ҳомид Ғаззолий (2022). “Ихйоу улумид дин”. Таржимон Рашид Зоҳид. –Тошкент.: “Matbaachi”, – Б. 354.
13. Abu Homid Gʻazzoliy (1961). “Mushkot ul-anvor”. – Qohira, – B. 51.
14. Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф (2021). Ақоид илми ва унга боғлиқ масалалар. –Тошкент.: “Hilol-Nashr”, –Б. 227.